

«Asaka» Bankining 2016 yilga mo'ljallangan Biznes-rejasi

«Asaka» Bankining 2016 yilga mo'ljallangan Biznes-rejasi «Asaka» Bankining O'zbekiston bank bozorida 2016 yildagi tijorat faoliyati uchun asos hisoblanadi va 2016 yil uchun belgilangan strategik parametrlarni amalga oshirish, jumladan, ularga erishish uchun tadbirlarni ham o'z ichiga olgan moliyaviy loyihadir.

Reja bankning real istiqbollari va potensial imkoniyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va yagona maqsadga erishishga yo'naltirilgan barcha tashkiliy tuzilmalarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtiruvchi 2016 yilga mo'ljallangan korporativ vazifalarning aniq-ravshan qo'yilishini o'z ichiga oladi.

Ushbu dasturiy hujjat doirasida Bank, respublikaning dinamik va samarali rivojlanib borayotgan, mijozlar va investorlar uchun moliyaviy barqaror va jozibali yirik banki sifatida bank xizmatlari bozorida va moliyaviy bozorda o'z mavqeini mustahkamlash uchun yetarli bo'lgan mutlaq va nisbiy moliyaviy ko'rsatkichlar darajasigacha o'siishni ta'minlashni rejalashtirmoqda.

Prognoz davri yakunlari bo'yicha Bank quyidagi moliyaviy natijalarga erishishni rejalashtirmoqda:

Aktivlarni 41,5% ga o'stirish va ularning mutlaq qiymatini kamida 10 480,2 mlrd so'm darajasiga yetkazish.

Majburiyatlarni na 44,6% ga o'stirish va ularning mutlaq qiymatini kamida 9 384,1 mlrd so'm darajasiga yetkazish.

Jamlanma kapitalni 1 096,1 mlrd so'm darajasiga yetkazish (ko'rsatkichning o'sishi 19,7% ni tashkil qiladi).

Bankning sof foyddasi 95,0 mlrd so'm darajasida prognoz qilinmoqda.

Bunda aktivlar rentabelligining nisbiy qiymatini 1% darajasida saqlab turish rejalashtirilmoqda.

Resurslar bo'yicha (foizlik) xarajatlar 2016 yil uchun 448,3 mlrd so'm miqdorida kutilmoqda.

Resurslarni joylashtirishdan olinadigan (foizlik) daromadlar 2016 yil uchun 686,5 mlrd so'm miqdorida kutilmoqda.

Bank 2016 yilda 945,9 mlrd so'm (2015 yil ko'rsatkichiga nisbatan 114,1%) miqdorida jamlanma daromad olishni rejalashtirmoqda, xarajat qismining prognozi 850,9 mlrd so'mni (2015 yil ko'rsatkichiga nisbatan 114,4% ni) tashkil qiladi. Sof foyda 95,0 mlrd so'm darajasida (2015 yil ko'rsatkichiga nisbatan 114,1%) prognoz qilinmoqda.